

Akobirov Mirjalol Ximmatovich

O'zbekiston respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi t. f. f. d., (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sulton Jaloliddin Manguberdining qo'shinidagi harbiy unvonlar, ularning nomlanishi va vazifalari haqida tarixchilarning ma'lumotlari tahlil asosida ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Amir, xon, malik, sipohbud, silohdor, amir-i oxur, pahlavon, amir-i a'lam, chovush, jondor, sarxang, jamaqdor.*

Sulton Jaloliddin Manguberdi davrida ham qo'shining bosh qo'mondoni hukmdor bo'lgan. Sultan Jaloliddin xorazmshoh nafaqat mo'g'ullarga qarshi janglarda, balki Yaqin va O'rta Sharq hukmdorlari, gruzinlar bilan olib borgan urushlarida doimo bosh qo'mondon sifatida jang olib borgan.

Hukmdor ayni paytda maslahat kengashi faoliyatini yuritsa-da, harbiy sohaga oid bo'lgan barcha qarorlarni ham uning shaxsan o'zi qabul qilardi. Urush va tinchlik sulhlari tuzish, jangda qo'llaniladigan strategiya yoki taktikani belgilash, rutba - unvonlar berish yoki undan mahrum qilish sultonning vakolatiga kirar edi. Harbiy sohada ko'rsatgan qahramonliklari uchun beriladigan iqtolarni ham hukmdorning o'zi belgilardi.

Oydin Tonariy ma'lumotlariga ko'ra, anushteginiyalar davrida davlatdagi eng yuksak, eng yuqori harbiy unvon bu "qo'id" yoki "muqaddam" bo'lib, u bosh qo'mondon - "muqaddami asokir" deb atalgan³⁵.

Yana bir turk tadqiqotchisi Maryam Gurbuz fikriga ko'ra, aslida, bu unvon eng tajribali va salohiyatli amirlarga berilgani uchun "Amir-i amiron" (yoki turkcha: „beylar beyi") deb atalgan³⁶. Bu unvon faqat qo'shining bosh qo'mondoniga berilgan. Ammo manbalarda ba'zida juda kichkina bir harbiy qismning qo'mondoni ham "muqaddam" deb atalgan bo'lsa, yana bir boshqa joyda bosh qo'mondon uchun ham bu atama ishlatilgan. Bir joyda muqaddam uchun "qo'id" atamasi ham qo'llanilgan.

Lekin Sulton Muhammad davrida bu unvon borasida ozgina o'zgarishlar yuz berdi. Ya'ni qo'shinda qipchoq, qang'li va boshqa urug'larning mavqyeining oshib borishi natijasida amalda endi qabila xonlari mavqyei yuksalishi tabiiy, albatta. Natijada, "xon" unvoni eng yuksak harbiy unvonga aylandi. Sultan Jaloliddin davrida xonlarning mavqeい yanada oshib, "muqaddam" yoki "amir-i amiron" unvoni bosh qo'mondon ma'nosini anglatsa-da, endi bu unvon janglarda eng ko'p qahramonlik ko'rsatgan qobiliyatli amir va lashkarboshilarga berilgan³⁷.

Bundan kelib chiqadiki, xorazmshohlarda aslida eng asosiy unvon "amir" bo'lib, mansabdorlarning qaysi sohada ko'rsatgan xizmatidan qat'iy nazar ularga eng avval

³⁵ Oydin Tonariy. Ko'rsatilgan asar, 91-bet.

³⁶ Meryem Gürbüz. Hârizmçahlar'da devlet teşkilati, ekonomik ve kültürel hayat .- S.144.

³⁷ Oydin Tonariy. Ko'rsatilgan asar, 91-bet.

"amir" unvoni berilgan. Bu holat harbiy sohaga ham taalluqlidir. Umumiy holatda bosh qo'mondon qaysi unvon egasi bo'lishidan qat'i nazar uning vakolatlari keng bo'lган. Jumladan, qo'shin qo'mondoni biror – bir jang borasida o'z fikrini bildirish huquqiga ega bo'lган. Shu bilan birga, qo'mondonlar bo'lajak jang rejalarini tuzishda, qo'shin uchun zarur qurol - aslahalar borasidagi masalalarda, kichik harbiy unvonlar berish va tinchlik davrida esa askarlarning ta'limi borasida erkin qarorlar chiqarish huquqiga ega edilar. Qo'mondon lashkarning doimo jangga tayyor bo'lishiga, urush bilan bog'liq xavfsizlikni ta'minlash borasida javobgar bo'lган³⁸.

Bu mansabdan tashqari "amir - i sipohsolor" unvoni ham bo'lib, bu unvon ma'nosiga ko'ra davlat qo'shnlari bosh qo'mondoni emas, balki hududlar qo'shini bosh qo'mondoni vazifasini bajargan³⁹.

Bunday holat xuddi saljuqiylarda ham mavjud bo'lганligidan kelib chiqadigan bo'lsak, anushteginiylar davlat boshqaruvi an'analari ko'proq saljuqiylardan o'zlashtirilgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Xorazmshohlar qo'shinda "amir" aslida qo'mondon, zabitga to'g'ri keladigan bir rutbadir. Chunki Jaloliddin harbiy faoliyatining deyarli barcha jabhalarida "amir"lar qo'shining bosh qo'mondoni sifatida, janglarda, harbiy faoliyatda bu mansabga duch kelinmoqda. Xorazmshohlar davlatining viloyat, shahar va boshqa hududlar askariy bo'linmalariga ham amirlar qo'mondonlik qilishgan⁴⁰. Manbalardagi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, amirlar saroyda ham juda katta nufuzga ega bo'lганliklarining guvohi bo'lamiz.

Bulardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, amirlar viloyat va shaharlarga hokim qilib yuborilganda va ular 10000 kishilik qo'shinga boshchilik qilish layoqatiga erishganlarida ham "malik" unvoni berilgan. Jumladan, Xo'jand hokimi Temur Malik Sulton Jaloliddinning eng yaqin safdoshi sifatida uzoq vaqt xizmat qilgan. Yoki uning qaynotasi Amin Malik ham sulolaning eng nufuzli amirlaridan bo'lган⁴¹.

Sulton Jaloliddin Hindistondan qaytib kelib, Kirmonga yetishganida u yerda hokim bo'lган Boroq Hojib Sulton Alouddin Muhammadning amirlaridan edi⁴².

Xon.

Aslida qabila boshliqlari bo'lган, ammo xorazmshohlar harbiy tizimida ma'lum miqdordagi qo'shin qo'mondonlari hisoblangan "xonlar", yuqorida ta'kidlaganimizdek, Muhammad xorazmshoh davrida asta - sekin bosh qo'mondonlarga aylana boshlaganlar. Bu jarayon sulton Jaloliddin davrida o'z nihoyasiga yetib, "xon" unvoni bosh qo'mondonga aylangan. Sulton Jaloliddin xorazmshoh davrida qo'shindagi eng yuqori rutba "xon" bo'lган edi. Jumladan, Sulton jangda muvaffaqiyatga erishganlarga "Alp xon", "Xos xon" va "Sungur xon" kabi unvonlar ham berardi. Jaloliddin vafotidan keyin Sharq mamlakatlari hukmdorlari xizmatiga kirgan lashkarboshilarining

³⁸ Meryem Gürbüz. Hârizmçahlar'da devlet teşkilati, ekonomik ve kültürel hayat. – S.145.

³⁹ Meryem Gürbüz. Hârizmçahlar'da devlet teşkilati, ekonomik ve kültürel hayat. – S.145.

⁴⁰ Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотихи тарихи). – Б. 294.

⁴¹ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – B. 103-105.

⁴² O'sha joyda. – B.170.

hammasi xon unvonida bo'lishgan. Jumladan, Qir xon, Saru xon, Barakatxon va Kuchli xon kabi⁴³.

Malik.

Turkiy davlatlarda sulolaga mansub yoki unga yaqin kishilar uchun ishlatalgan "malik" unvoni xorazmshohlarda o'zgarishga uchrab, endilikda harbiy unvon sifatida qo'llanilgan. Shu bilan birga, malik unvoni 10000 kishilik qo'shin qo'mondoniga, ba'zi viloyat yoki shahar hokimlariga nisbatan ham berilgan. Nasaviyga ko'ra, maliklik darajasiga yetishish oson bo'lмаган⁴⁴.

Sulton Jaloliddin ham otasi Obeskunda bo'lgan paytda unga yaxshi xizmat qilgan Tojiddin Hasanni "malik"lik rutbasiga ko'targan edi⁴⁵.

Umuman olganda, Sulton Jaloliddin davrida avval "amir" keyin "malik" unvoni berilgan.

Sipohbud.

Xon, amir va maliklardan keyin qo'shinda "sipohbud" deyilgan va suvoriy larga qo'mondonlik qilgan yuksak unvonli zabitlar toifasi ham bor edi⁴⁶. Bu unvon eng qadimgi unvonlardan biri bo'lib, bizga sosoniylar davridan ma'lum.

Silohdor.

Amirlik butunlay harbiy kelib chiqishli, tag-tugli bo'lishni talab qiladigan bir unvon edi. Sultonning quroq-aslahalariga javobgar bo'lgan mansabdor "silohdor" ham amirlar orasidan tanlanardi⁴⁷.

Sulton Jaloliddin Hindistonda bo'lib turgan paytda G'iyosaddinning yonidan ajralib kelgan amirlardan biri Sirja-i silohdorning unvoni ham "silohdor" edi⁴⁸.

Sulton Jaloliddin xorazmshoh Axlotda bo'lib turgan paytda silohdor Dekchakni mo'g'ullarning xatti - harakatlari haqida ma'lumot to'plash uchun Xorazmga yuborgan edi⁴⁹.

Amir - i oxur.

Sulton otxonalariga javobgar bo'lgan saroy mansabdori amir-i oxur hisoblangan. Har qanday qadimgi va o'rta asrlar davlatlarida bo'lgani kabi xorazmshoh - anushteginiyarda ham otlar harbiy - iqtisodiy sohada juda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu mansabdor maqomining qay darajada muhim bo'lganini anglaymiz. Chunki otliq askariy tuzilmaning davlatning asos tayanchi ekanligi ko'zda tutilsa, tabiiyki, buning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi.

Shuningdek, amir-i oxur mamlakatning hamma yeridagi otlar yashaydigan, boqib, o'rab qo'yiladigan joylarning xavfsizligiga, taraqqiyotiga javobgar bo'lgan. Qolaversa,

⁴³ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – B. 170; Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati... – B.221.

⁴⁴ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – B. 43-47.

⁴⁵ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – B. 69.

⁴⁶ O'sha joyda. - B. 219,305.

⁴⁷ O'sha joyda. - B. 117.

⁴⁸ O'sha joyda. - B. 117.

⁴⁹ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. - B. 266.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-8 ISSUE-1 (30- January)

bu mansab egasi faqat otlar bilan mashg'ul bo'lmasdan, shahar mudofaasiga ham qisman javobgar bo'lgan⁵⁰.

Sulton Jaloliddinning amir-i oxuri "Eng ayyor mulozimlardan biri" Odoqxon edi, u sultonning barcha janglarida yonida turib qatnashgan edi⁵¹.

Amir – i a'lam.

Hukmdorning bayrog'ini olib yuruvchi va unga javobgar bo'lgan qo'mondon. Janglarda sultonning yonida, qo'shining markazidan joy olgan bayroq va tug'larni alamdarlar olib yurardilar va alamdlarning boshlig'i ham amir-i alamdir⁵². Bundan tashqari bayroq va tug'larning faqat janglardagina bo'lishi bilan emas, ayni paytda ularni yasash va muhofaza qilish bilan ham amir-i alam shug'ullangan.

Nasaviy ham Sulton Alouddin Muhammad davrini hikoya qilarkan amir ul-alam ul-Iraqiy unvonli Shamsaddin ismli bir qo'mondonni zikr qiladi⁵³.

Pahlavon.

Bu harbiy rutbaning xorazmshohlar qo'shinidagi o'rnni to'liq aniqlab bo'lmaydi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, qo'shining muqaddam qismi qo'mondoniga "pahlavon" deyildi. "Pahlavon" unvoni malikdan past unvon bo'lishi mumkinki, Muhammad xorazmshohning jazo organi boshlig'i Ayoz Jahon Pahlavon ismidan anglashilishiga ko'ra, u avval "pahlavon" keyin "malik" unvonini olgan⁵⁴.

Chovush.

Chovush - qo'shindagi quyi rutbalardan biri bo'lib, u choperlik vazifasini anglatgan. Sulton Jaloliddin qo'shin qo'mondonlarini jangga chaqirmoqchi bo'lganida, bu chaqiriq uchun pahlavonlardan tashqari, chovush mansabidagi (serjant, unter-ofitser) zabitlarni ham yuborgan⁵⁵.

Chovushlarning boshi, boshlig'i "Muqaddam-i Chovushon" unvoniga ega edi. Misol uchun Jaloliddin xorazmshoh Muqaddam-i Chovushon vazifasidagi Kamoliddinni, ismoiliy fidoiyalarini xizmatga olganligi uchun o'lim bilan jazolagan edi⁵⁶.

Jandor.

Bu mansab egasi sultonning qurol - aslahalarini saqlovchi odam bo'lgan⁵⁷.

Sarxang.

Xorazmshohlarda 500 kishilik qo'shin qo'mondoni⁵⁸.

Jamaqdor.

Sultonning shaxsiy gvardiyasi yoki mamluklari bo'linmasi boshlig'i, xos soqchilar bo'limi boshlig'i⁵⁹.

Jaloliddin Xorazmshoh qo'shinida yana ko'plab harbiy unvonlar mavjud bo'lib, bular "alp", "xon", "xos xon", sungur xon degan unvonlar ham bo'lgan⁶⁰. Sulton jangda

⁵⁰ O'sha joyda. - B. 70.

⁵¹ Buniyodov Z. Anushtagin – Xorazmshohlar davlati. – B.132.

⁵² Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi) .- B. 370.

⁵³ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. - B. 36,70.

⁵⁴ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. - B. 43.

⁵⁵ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. - B. 70.

⁵⁶ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. - B. 164.

⁵⁷ O'sha joyda. - B.192.

⁵⁸ O'sha joyda. - B.69.

⁵⁹ An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. - B. 278.

o‘zini ko‘rsatgan amirlarga shunday unvonlar berar edi⁶¹. Ammo ularning aynan qanday vazifalarni bajarishlari ma’lum emas.

Xorazmshohlar qo‘shindagi rutbalar shubhasiz yuqoridagilar bilangina cheklanib qolmagan. Ammo manbalarda ular haqida yetarli ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi unvonlarning qaysi darajada ekanligini to‘liq aniqlay olmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – B. 170; Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. 1973.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. / Tarjima va so‘z boshi muallifi Nazarbek Rahim, Mursal O‘zturk. T.: Mumtoz so‘z, 2015.
3. Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri (Turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjiması). – T.: Sharq, 1999.
4. Бунятов З.М. Военная организация государства Хорезмшахов (1097-1231 г.) // Известия АН Аз ССР. Сер. история, философия, право, 1982.
5. Meryem Gürbüz. Hârizmçahlar’da devlet teckîlâtı, ekonomik ve kültürel hayat.

⁶⁰ O’sha joyda. - B.170, 353.

⁶¹ O’sha joyda. - B. 353.